



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

ANTIK DAVRDA RITORIKA VA OMMAVIY NUTQLARNING SHAKLLANISHI HAMDA NAZARIY ASOSLARI

Abdusamatov Farruxbek

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada antic davr notiqlik san'ati va ritorikaning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Qadimgi Yunoniston va Rim sivilizatsiyalarida nutq madaniyati siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hayotning muhim qismi bo'lib, u inson tafakkuri va ijtimoiy muloqot rivojida muhim rol o'ynagan. Maqolada ritorika sohasining paydo bo'lishi Koraks va Lisiykabi ilk notiqlik maktabi vakillarining faoliyati bilan bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Platon, Aristotel va Lisiy kabi yunon faylasuflari va notiqdari tomonidan ritorika nazariyasining falsafiy va mantiqiy asoslari ishlab chiqilgani tahlil qilinadi. Rim davrida esa Sitseron va Tatsit kabi notiqdar ritorikani siyosiy nutq, davlat boshqaruvi va sud jarayonlarida qo'llash orqali uning amaliy ahamiyatini yanada rivojlantirgan. Maqolaning natijasi sifatida antik davr ritorikasi zamonaviy diskurs tadqiqotlari va pragmatik tilshunoslik rivojida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: antik ritorika, Aristotel, Koraks, Platon, Sitseron, Rim ritorikasi, nutq tuzilishi, ishontirish usullari, Tatsit, Lisiy, logograflik, logograf .

ФОРМИРОВАНИЕ РИТОРИКИ И ПУБЛИЧНЫХ ВЫСТУПЛЕНИЙ В АНТИЧНУЮ ЭПОХУ И ИХ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Абдусаматов Фаррухбек

Узбекский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, докторант

Аннотация

В данной статье рассматривается становление и развитие риторики и искусства публичной речи в античную эпоху. В древнегреческой и римской цивилизациях риторика играла важную роль в политической, правовой и общественной жизни. В статье анализируются истоки риторической традиции, связанные с деятельностью Корекса и Тисия, которые считаются основателями ранних риторических школ. Особое внимание уделяется философским и логическим основам риторики, разработанным древнегреческими мыслителями Платоном, Аристотелем и Лисием. В римскую эпоху риторика получила дальнейшее развитие благодаря трудам Цицерона и Тацита, которые рассматривали красноречие как важнейший инструмент политического лидерства и судебной практики. В исследовании также рассматриваются ключевые элементы античной риторики, включая стратегии убеждения, композицию речи и стилистические особенности. Делается вывод о том, что античная риторическая традиция оказала значительное влияние на современную теорию дискурса, прагматику и исследования коммуникации.

Ключевые слова: античная риторика, ораторское искусство, Аристотель, Цицерон, древняя Греция, римская риторика, дискурс, стратегии убеждения, структура речи.

THE FORMATION OF RHETORIC AND PUBLIC SPEAKING IN ANTIQUITY AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS

Abdusamatov Farruxbek

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Doctoral Student

Abstract

This article examines the development of rhetoric and the tradition of public speaking in antiquity. In ancient Greek and Roman civilizations, rhetorical discourse played a crucial role in political, social, and legal life. The study explores the origins of rhetorical theory, tracing its early development to the works of Corax and Tisias, who are considered pioneers of rhetorical education. The philosophical foundations of rhetoric developed by classical Greek thinkers such as Plato, Aristotle, and Lysias are analyzed. Particular attention is given to Aristotle's systematic approach to rhetoric, especially his concepts of persuasion and rhetorical structure. In the Roman period, rhetoric gained further significance through the works of Cicero and Tacitus, who emphasized the importance of eloquence in political leadership and legal practice. The article also highlights the main rhetorical principals of antiquity, including persuasive strategies, rhetorical organization and stylistic devices. The study concludes that classical rhetoric continues to influence modern discourse analysis, pragmatics, and communication studies.

Keywords: public speaking, classical rhetoric, Cicero, Aristotle, ancient Greece, Roman rhetoric, persuasion strategies, rhetorical structure.

Omnia oldida nutq so'zlash (public speaking) san'ati qadim-qadim davrlardan beri insoniyatning hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan va u ritorika deb yuritilgan. Manbalarda kelishicha, ommaviy notiqlik bugun yoki kecha paydo bo'lgan tushuncha emas. Uning paydo bo'lishi va shakllanishi olis davrlarga borib taqaladi. U til taraqqiyotiga bog'liq holat muntazam ravishda davrga moslashadi, o'zgarib turadi. U doimiy rivojlanishda bo'lgan mukammallashib boruvchi jarayon sifatida xalq ruhini o'zida aks ettiradi va milliy-ma'naviy xususiyatlarni saqlab boradi. Insonning ma'naviy qiyofasini o'zida aks ettiruvchi bu jarayonga azal-azaldan har bir mamlakatda alohida jiddiy e'tibor berilganligi jahon xalqlari tarixidan ma'lum.

Manbalarda qayd etilishicha, bugungi kunga kelib alohida bir tarmoq sifatida tan olingan fanning bu sohasi paydo bo'lishi va shakllanishiga ko'ra qadimgi Rim va Afriqaga boriq taqalsa, undan ham oldinroq qadimgi Misr, Assuriya, Vavilon va Hindistondan kelib chiqadi. Jahon xalqlari madaniyati tarixi haqida gap ketganda Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, isey, Demosfen, Esxil, Sitseron kabi o'nlab olimlar tilgan olinsa, Sharq, Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Farobiy, Alisher Navoiy kabi allomalar tomonidan yaratilgan asarlar jahon xalqlari madaniyatining umuminsoniy merosi ekanligi qayd etiladi.

Tarixda "so'z odobi", "nutq odobi", "til madaniyati" va keyinchalik "nutq madaniyati" degan nomad barqarorlashgan ushbu soha muammolari doimo olimlar e'tiboridan tushmay kelmoqda. O'tgan asr oxirgi choragidan bugungi kunga qadar nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan yirik hajmdagi "O'zbek tili stilistikasi" (Toshkent, 1983), "O'zbek nutqi madaniyati ocherklari" (Toshkent, 1988), "O'zbek nutqi madaniyati asoslari" (Toshkent, 1991.), "Nutq madaniyati va uslubi asoslari" (Toshkent, 1992.), "O'qituvchi nutq madaniyati" (Toshkent, 2009) kabi ilmiy qo'llanmalar yaratildi.

Ma'lumki, qadimgi davrlardayoq nutqqa insonning xulqi, madaniyatini ko'rsatuvchi belgi sifatida qaraganlar. Inson faoliyatining hamma qirralari til bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun til birgina aloqa qilish vositasigina emas, balki odob, axloq ziynati ham hisoblangan. Ajdodlarimizning nuq odobi haqidagi qarashlari, falsafiy mushohadalari asrdan asrga o'tib puxtalanib, silliqlasha borgan va tildan foydalanib, o'z fikrlarini jozibador, go'zal tarzda ifodalash maxsus san'at darajasigacha ko'tarilgan. Nutqdan foydalanishda qo'pol, beparda so'zlarni ishlatmaslik, manmanlik, g'iybat qilmaslik hamda yolg'on so'zlamaslik kabi bir qancha talablar qo'yilgan. Shuning uchun Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "Erdam boshi

til”, ya’ni odobning boshi tildir, deyilgani ham bejiz emas.

O’rta Osiyo xalqlari, jumladan o’zbek xalqi ham so’zga, notiqlikka jiddiy e’tibor berib, qadrlab kelishgan. O’sha davrda ritorika voizik, notiqlar voizlar, nutq esa “va’z” deb atalgan.

O’rta Osiyo xalqlari, xususan, IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, yetakchi saflarida turish darajasiga chiqa oldi. O’rta asr fani madaniyati Xorazmiy, Farg’oniy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy Mahmud Koshg’ariy, Jomiy, Navoiy kabi ulug’ siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi. Bu mutafakkirlar yashagan davr Sharq tarixida “Uyg’onish davri” deb ataladi. Bu davrda madaniyat ilm-fan rivoj topdi. Fan va madaniyat targ’ibotchilari – voizlar yetishib chiqdi. Voizlikni qadrllovchi fikrlar vujudga keldi. Sharqda, ya’ni Movarounnahrda badiiy, ilmiy ijodning taraqqiyoti bilan, shuningdek, va’zxonlik, “Qur’on” ni targ’ib qilish bilan mushtarak holda so’zning ahamiyati, ma’nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko’p yaxshi fikrlar aytilgan. Insoniyatni boshqa maxluqotlardan ajratib turadigan ham nutq bo’ladi. Insonga fikrini bayon etish uchun nutqqa qo’shib aql berilgan. Nutq esa til orqali amalga oshadi. Buyuk allomalar, Abu Rayhon Beruniy, Abu nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy, Mahmud Koshg’ariy, Zamaxshariy tilga, lug’atga, grammatika va mantiqshunoslikka bag’ishlagan asarlar yozganlar yoki boshqa sohaga oid asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Qadimgi san’at turlaridan biri ritorika yoki ommaviy ommaviy nutq so’zlash dastlab Misr, Assuriya, Bobil kabi qadimiy davlatlarda rivoj topgan bo’lsa, keyinchalik Gretsiya (Yunoniston) va Rimda rivoj topdi. O’sha davrda davlat arboblari notiqlik mahoratiga qarab yuqori lavozimlarga tayinlangan. Perekl, Kelon, Demosfen, Gipperiid kabi davlat arboblari omma oldida nutq so’zlashni san’at darajasigacha ko’tardilar.

Ritorika sohasining asoschisi yunon olimi Koraks hisoblanib, u ritorikaga “ishontiruvchi xizmatkor” deb ta’rif beradi. Qadimgi Yunonistonda notiqlik san’atiga ilmiy jihatdan tadqiq etganlar “sofistlar” deb atalgan. Sofistlar ko’q qirrali va so’zga usta insonlar bo’lib, notiqlik san’atiga asos solishgan faylasuflardir. Ular “donishmadnlik va fasohat” ilmining ustozlari bo’lishgan. Sofistlar ritorikaning barcha xususiyatlaridan ustalik bilan mohir foydalanib, ommaga ta’sir qilishda ularga yetadigan odam bo’lmagan. Sofistlar har qadamda so’zning qadr-qimmatini ta’kidlab o’tishgan va nutqni, ritorikani “barcha fanlar malikasi” deb atashgan. So’z va nutqning mohiyatini tushunish, anglash uchun ritorikani kashf etgan qadimgi notiqlar hamda ritoriklarning fikr-mulohazalari, izlanishlari, g’oyalari bilan yaqindan tanishish kerak. Antik davr notiqligi nazariyalarini Aristotel, Sitseron, Kvintilian, Aflotun, Demosfen va Lisiy kabi olimlar shakllantirishgan.

Qadimgi Rim va Yunonistonda quldorlik demokratiyasi va quldorlik tuzumining taraqqiy etishi sababli ritorika san’ati rivoj topdi. O’sha zamonda mamlakatning rivoji bevosita nutq so’zlash va nutq madaniyatini ham taraqqiyotiga hissa qo’shdi. Natijada notiqlik san’at darajasigacha ko’tarildi. Insonlarga nutq madaniyati va notiqlikni o’rganish, bilish shart etib qo’yildi. Shu sababli notiqlik nazariyasi yaratilgan. Endi o’sha zamondagi bir qator yunon va rimlik notiq olimlar haqida qisqacha bayon qilinadi.

Shunday yunon olimlaridan biri Lisiy – antik davrning ulug’ notig’i (Mil. avv. 459-380 y.y.) hisoblanadi. Lisiy hikoyachilik yo’nalishining mohir ustalaridan bo’lib, logografik (“sudda nutq so’zlovchi”) kasbi bilan jiddiy shug’ullangan. Bizgacha uning 34 ta nutqi ma’lum va ularning ko’pchiligi sud nutqlaridan iborat bo’lgan. O’sha paytda sud notiqligi ancha ommalashib rivojlangan edi. Afina davlatidagi sud faoliyati tizimi sud notiqligini rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan, chunki Afina fuqarosi qonunga ko’ra sudda o’zini-o’zi himoya qilish huquqiga ega bo’lgan va uning suddadi taqdiri uning qanchalik yaxshi nutq so’zlovchisi ekanligiga ham bog’liq bo’lgan. Shundan keyin logograflar deb ataluvchi kasb ham vujudga kelgan va ular kishilar sudda so’zlashi uchun maxsus nutqlar yozib berish bilan shug’ullangan. Lisiy logografik qilishdan avval

u sudga ishi tushgan kishilar bilan tanishadi. Shu sababli uning nutqlari jimjimador, baland-parvoz soʻzlardan holi hisoblanib, oʻzining samimiy gaplari va oʻz oʻrnida dalil keltirish mahorati bilan alohida eʼtiborga molik boʻlgan. Mashhur notiq Sitseron “biz imkoniyatga qarab, Lisiyga, birinchi navbatda, uning soddalik uslubiga taqlid qilamiz”, deb Lisiyning nutqlari sodda, loʻnda va ravshanligiga ishora qilgan. Shu tariqa soʻzning tashqi koʻrinishini ortiqcha bezamasdan, har bir odamni oʻz tilida gapirtirish va shu qobiliyati orqali oʻzining asl solohiyatini namoyish etishda u kuchli logograf edi.

Qadimgi Yunonistonda notiqlikning asosan uch yoʻnalishi mavjud boʻlgan: 1) sud notiqligi; 2) siyosiy notiqlik; 3) maqtoʻv notiqligi. Maqtoʻv notiqligi yoʻnalishida kishilarga maqtoʻv aytilardi va shunday ommalashgan yoʻnalishning yuksak namoyondalaridan biri Demosfen (mil. avv. 384-322) edi. U nutqni maʼlum bir siyosiy maqsadlarni amalga oshiruvchi vosita, deb bilgan. Demosfendan bizgacha uning 61 ta nutqi matnlari, bir nechta maktublari va 56 ta nutqqa “kirish” parchalari yetib kelgan. Demosfen Lisiydan farqli ravishda kishilarning ruhiyatiga kirib borar, ularning tabiatini sinchiklab oʻrganar va omma oldida esa notiqlikning qaysi uslubi ishlatilishi zaruriyatini yaxshi bilardi.

Yunon olimlarining eng mashhurlaridan yana biri, Aflotun ham ritorikaning yaratilishida alohida oʻrinni egallaydi. Aflotun shunday deydi: “Ritorika bilan shugʻullanmoqchi boʻlgan inson avvalo oʻz uslubini aniqlab olishi va notiqlik koʻrinishlarini puxta egallab, soʻng ish boshlashi lozim”. Aflotun fikricha, ritorikani faqatgina mahorat egasi boʻlgan shaxs egallay olishi mumkin va notiqlikda “emotsional ishonitirish” eng asosiy talab ekanligini taʼkidlaydi. U notiqlikdagi keyingi zaruriy talab sifatida “mantiqiy isbotlash” ni aytib oʻtadi. Aflotun “isbotlash emas, ishonitirish, ishonitirganda ham taʼsirli ishonitirish kerak”, deb taʼsirli ishonitirishni oldin, mantiqiy dalillashni esa keyinga oʻringa qoʻyadi. Aflotun “Fedr” asarida yuksak notiqnlarni “Nutq Dedallari”, deya eʼtirof etadi. Bular quyidagilar: Kritiy, Even Parosskiy, Frasemax Holkedonskiy va Prataroras – nutqda aniqlikni diqqat markaziga qoʻygan notiqnar; Gorkiy va Tissiy – ritorikaning talantli vakillari; Prodik va Gippiy – nutq soʻzlashda meʼyorga amal qiluvchilar.

Aflotun “Fedr” kitobida nutq strukturasi quyidagicha keltirib oʻtadi: kirish, nutq bayoni, isbot-dalillar va ularni tasdiqlovchi xulosa.

Birinchi muallim sifatida tanilgan Aristotel (mil. avv. 335 yil) tomonidan yozilgan “Ritorika” asari notiqlik sohasidagi ilmiy-maʼrifiy va madaniy yangilik boʻldi. Aristotelning bu asari uchta kitobdan tashkil topgan boʻlib, birinchi kitobida nutq turlari va ritorika fanining boshqa fanlar bilan bogʻliqligi haqida soʻz yuritiladi. Ikkinchi kitobi dalillash usullari bagʻishlanadi va uchinchi kitobida esa nutq strukturasi va uslubi haqida soʻz boradi. “Ritorika” asariga koʻra, nutq turlari uch xil: suhbat nutqi, sud nutqlari va epideyktik nutqlar. Suhbat nutqida asosiy maqsad - ishonitirish yoki inkor qilish, sud nutqlarida ayblash yoki oqlash, epideyktik nutqlarda esa kamchiliklarni koʻrsatish yoki maqtash asosiy maqsad qilib belgilangan. Notiq bu nutq turlarini oʻz nutqida yoritib berishi asosiy talab sanaladi, bundan koʻzlangan maqsad esa tinglovchilarni yaxshi xulqlarga daʼvat etish va yaxshi odatlarni egallashga chaqirish boʻlgan. Bunday qobiliyatlarga ega boʻlgan inson mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga va turmush-tarziga katta manfaat keltirishi muqarrar, ekanligini Aristotel “Ritorika” asarida taʼkidlaydi.

Aristotel ham ritorik shaxslar egallashi lozim boʻlgan quyidagi tamoyillarni ishlab chiqadi:

- a) Nutq xizmat qilishi kerak boʻlgan usullar (metodlar);
- b) Notiqning shaxsiy mahorati va xususiyatlari;
- c) Nutq texnikasi va uning usullari;
- d) Material tanlash
- e) Reja, shakl va materialni joylashtirish.

Shunday qilib Aristotel va Aflotun singari yunon olimlari ritorika nazariyasiga asos soldi va uning rivojiga katta hissa qoʻshdilar. Qadimgi Yunoniston va Rimning eng yuksak

notiqlari notiqlik nutqining ham amaliy, ham nazariy jihatlarini o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida keltirib o'tib, so'zning sir-asrorlarini tahlil qilganlar.

Endi Qadimgi Rimning mashhur notiqlari va ularning izlanishlari bilan qisqacha tanishamiz.

Mark Tulliy Sitseron (mil. avv. 106 – 43 y.y.) - Qadimgi Rimning eng mashhur davlat arbobi, notiq, yozuvchi va ritorika nazariyotchisi bo'lib, uning nutqlari siyosat, sud va jamiyat hayotining markazida bo'lgan. Uning uch yirik asarlari - "Notiq haqida", "Brut yoki mashhur notiq haqida" va "Notiq" ritorika faniga katta tuhfa bo'lib e'tirof etilgan. Sitseron ta'kidlaydiki, notiq oldiga ikkita shart qo'yilishi kerak: nutq mavzusini chuqur bilish va nutq mazmunini anglash va tinglovchilarga yetkazib berish. Sitseron o'zining "Notiq haqida" degan asarida notiq oldida uch talab mavjudligini aytadi. Bular: 1) Notiqlik nazariyasini mustahkam o'rganish; 2) Nutqiy amaliyot; 3) noyob qoobiliyat, onli va kuchli xotirali bo'lish. Sitseron "Notiqlik avvalo san'at, ammo san'atlarning eng mashaqqatlisidir", deb aytib o'tadi. Sitseron yana deydi: "So'zlay olish o'zi tabiat in'om etgan xususiyatlarning eng bebahosidir. Uni rivojlantirish, doimiy ustida ishlash lozimdir". Bundan kelib chiqadiki, notiq nutqining mazmunli bo'lishi uchun ko'p mehnat qilishi, nutqini muntazam boyitib borishi kerak bo'ladi.

Korneliy Tatsit (milodiy 57-117 y) Qadimgi Rimning eng buyuk tarixchisi, siyosiy arbobi va senatori bo'lib, "Notiqlar haqida so'z" nomli asarni yozgan. Notiqlikning mazmun-mohiyatini o'rganish Tatsitning doimiy diqqat markazida turgan va bu uni qattiq qiziqtirgan. O'zining "Notiqlar haqida so'z" asarida keltirishicha, uch ritorik elementni birinchi bo'lib Gorgiy qo'llagan va ular – paralleliz, anaphora va antiteza. Notiqlik sohasidagi ritm masalasini birinchi bo'lib esa Frasemax ishlab chiqqan va notiqlik leksikasi bilan esa Pol va Likimiylar shug'ullanishgan.

Xulosa qilib aytganda, antik davrda shakllangan ritorika nazariyasi, nutq madaniyati va muloqot strategiyalarining rivojida muhim rol o'ynagan. Qadimgi Yunoniston va Rim notiqlari, jumladan, Platon, Aristotel, Sitseron va Tatsit, ritorikaning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishgan. Ular tomonidan tuzilgan ritorik metodlar, kategoriyalar bugungi kunda ham siyosiy nutq, diskurs tahlili va pragmatic tadqiqotlar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Апресян Г.З. Ораторское искусство. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1978. – С. 14.
2. Aripova A. Notiqlik – ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida. – Toshkent, 2024.
3. Aristotle. On Rhetoric: A Theory of Civic Discourse. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2007.
4. Aristotle. The Art of Rhetoric. – London: Penguin Classics, 1991.
5. Cicero M.T. On the Ideal Orator (De Oratore). – Oxford: Oxford University Press, 2001.
6. Cicero M.T. Brutus and Orator. – Cambridge: Harvard University Press, 1942.
7. Corbett E.P.J., Connors R.J. Classical Rhetoric for the Modern Student. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 1999.
8. Crowley S., Hawhee D. Ancient Rhetorics for Contemporary Students. – 5th ed. – Boston: Pearson, 2012.
9. Herrick J.A. The History and Theory of Rhetoric: An Introduction. – 6th ed. – New York: Routledge, 2017.
10. Jo'rayev T., Halimov S.G'. Nutq madaniyati. – Toshkent, 2021.
11. Kennedy G.A. A New History of Classical Rhetoric. – Princeton: Princeton University Press, 1994.
12. Kennedy G.A. Classical Rhetoric and Its Christian and Secular Tradition from Ancient to Modern Times. – Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1999.
13. Кохтев Н.Н. Основы ораторской речи. – М.: МГУ, 1992. – С. 19–23.

14. Lausberg H. Handbook of Literary Rhetoric: A Foundation for Literary Study. – Leiden: Brill, 1998.
15. Лосев А.Ф. Ораторское искусство. – М., 1969. – С. 32.
16. Murphy J.J. A Short History of Writing Instruction: From Ancient Greece to Modern America. – Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 2001.
17. May J.M., Wisse J. Cicero: On the Ideal Orator. – Oxford: Oxford University Press, 2001.
18. Платон. Собрание сочинений. Т. 2. – М., 1970. – С. 214.
19. Plato. Phaedrus. – Oxford: Oxford University Press, 2005.
20. Plato. Gorgias. – London: Penguin Classics, 2008.
21. Pernot L. Rhetoric in Antiquity. – Washington: Catholic University of America Press, 2005.
22. Rasulov R., Mo'yidinov Q. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. – Toshkent, 2015.
23. Tacitus. Dialogus de Oratoribus (Dialogue on Oratory). – Oxford: Oxford University Press, 2006.
24. Xo'jayeva L. Notqlik san'ati. – Toshkent: "Bilim", 1967. – 9-b.